



"TASDIQLAYMAN"

**O'zbekiston Respublikasi
Sog'liqni saqlash vaziri**

 **A. Xudayarov**

2025-yil 22 avgust

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

Hay'ati yig'ilishining

5 - son B A Y O N I

- Raislik qildi:** A.Xudayarov — O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri
- Ishtirok etdi:**
- Sog'liqni saqlash vazirligi Hay'at a'zolari, sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosarlari, Markaziy apparat boshqarma boshliqlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri va uning o'rinbosarlari, Toshkent shahar va viloyat sog'liqni saqlash boshqarmalari boshliqlari va o'rinbosarlari, Sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi qo'mitasi hududiy boshqarmalari boshliqlari, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari direktorlari, respublika tibbiyot tashkilotlari rahbarlari, oliy tibbiy ta'lim o'quv yurtlari rektorlari, respublika va viloyat tibbiyot muassasalari bosh shifokorlari, tuman va shahar tibbiyot birlashmalari boshliqlari

K U N T A R T I B I

1. Tibbiyotda islohotlar va ularning natijadorligi to'g'risida.
2. 2025-yil 1-yarimida moliyalashtirish parametrlarining bajarilishi, qayd etilgan muammolar to'g'risida.
3. Akademik V.Vohidov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va hududlarda 2025-yilning I-yarimida amalga oshirgan ishlari to'g'risida.
4. Buxoro viloyati sog'liqni saqlash tizimida 2025-yilning I-yarimida bajarilgan ishlari to'g'risida.
5. Boshqa masalalar.

(Xudayarov, Basitxanova, Tashpulatov, Omonov, Yusupaliyev, Azizov, Xudayarov)

Hay'at yig'ilishining kun tartibiga qo'yilgan masalalar yuzasidan vazir va so'zga chiqqan ma'ruzachilar tomonidan batafsil axborot berildi.

Taqdim etilgan ma'lumotlar yig'ilish ishtirokchilari tomonidan muhokama qilindi.

HAY'AT QARORI:

1. Ma'ruzachilar tomonidan taqdim etilgan axborot ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlik tizimidagi tuman, viloyat va respublika darajasidagi barcha tibbiyot muassasalar:

"90 kunlik o'zgarishlar vaqti" dasturi doirasida bajarilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni **joriy yil 1-sentyabriga**;

tibbiy jihozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni joriy yil **10-sentyabrga_qadar** tegishli elektron platformalarga kiritish ishlarini yakunlasin.

Investitsiya Dasturlari, infratuzilma, energetika va xo'jalik ishlari boshqarmasi boshlig'i I.Nabiyev va Tibbiy jihoz, transport hamda insonparvarlik yordamini muvofiqlashtirish va hisobini yuritish bo'limi O.Meliboyev ma'lumotlarni **muddatida** kiritib ulgurmagan muassasa rahbarlariga nisbatan intizomiy jazo chorasini qo'llash bo'yicha rahbariyatga taklif kiritsin.

3. **Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri, Toshkent shahar va viloyat sog'liqni saqlash boshqarmalari boshliqlari:**

Davlat byudjetidan ajratilgan mablag'larning maqsadli va samarali ishlatilishini ta'minlasin va doimiy nazoratini olib borsin;

xorijiy grant mablag'larini jalb etish bo'yicha 2025-yilda sog'liqni saqlash sohasiga **150 mln dollar** miqdorida mablag'larini jalb etish rejasini yil yakuniga qadar to'liq bajarilishini ta'minlasin;

joriy yilda **230 ming** xorijiy fuqarolarga xizmat ko'rsatish hisobiga tibbiy xizmatlar eksportini jami **250 mln (hududlarda 220 mln dollar, 24 ta ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlar 30 mln) dollarga** yetkazish bo'yicha o'z rejalarini bajarish yuzasidan qat'iy choralarni ko'rsin;

2026-yil uchun pullik xizmat ko'rsatish prognoz hajmlarini vazirlik bilan kelishilgan holda belgilasin va mavjud resurslardan to'liq foydalanish, tushumlarning muassasa g'aznasiga to'liq kirim qilinishini ta'minlasin;

DMED axborot tizimining **"Laboratoriya"** hamda **"Elektron retsept"** modullariga ma'lumotlarni to'liq va sifatli kiritilishini doimiy nazoratini olib borsin;

har haftada Onkologik kasalliklarga chalingan bemorlarning elektron ro'yxatini yuritishga mo'ljallangan **"Cancer-registr"** axborot tizimiga bemorlar ma'lumotlarini kiritilishi bo'yicha Vazirlik **"Situatsion markazi"**ga axborot kiritilishi ta'minlasin;

bir hafta muddatda tibbiyot muassasalarida elektron tizimlar bilan ishlaydigan **"IT-operator hamshiralar"**ga **100 foizdan** kam bo'lmagan miqdorda ustama to'lovlar to'lanishi yakunlasin va tegishliligi bo'yicha vazirlikka axborot kiritsin. Bunda, mazkur to'lovlar to'lanishida sustkashlikka yo'l qo'ygan ayrim viloyat sog'liqni saqlash boshqarma boshliqlari **so'ngi marta ogohlantirilsin**;

bir oy muddatda tibbiyot brigadasi, shu jumladan, xususiy oilaviy shifokor va unga birlashtirilgan aholi o'rtasida tomonlarning huquq va majburiyatlarini belgilovchi elektron bitim tuzish ishlarini jadallashtirishni hamda Yagona interaktiv davlat

xizmatlari portali (my.gov.uz)da yo'lga qo'yilgan **"Jismoniy shaxslarni oilaviy poliklinikalarga hisobga qo'yish"** xizmatidan tizimli foydalanishini tashkil etsin.

2025-yil 1-oktyabrga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-iyundagi **PQ-197-son** qaroriga asosan **mahalliy byudjet hisobidan** hududlardagi tibbiyot muassasalarini **zarur kompyuter texnikalari bilan ta'minlash** rejasini **yakuniga yetkazish choralari**ni ko'rsin hamda tegishliligi bo'yicha vazirlikka axborot kiritсин;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yordamchisining 2025-yil 7-martdagi 03-RA 1-3364/9-son ko'rsatmasi hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2025-yil 10-martdagi 03/1-806-son topshiriqlarida qayd etilgan **17 ta** davlat-xususiy sheriklik loyiha hujjatlarini **bir hafta muddatda** belgilangan tartibda vazirlikka kiritish choralari ni ko'rish hamda tadbirkorlar tomonidan loyihani amalga oshirish bo'yicha xohish bildirilmagan taqdirda o'rindoshlariga almashtirish bo'yicha takliflar hokimliklar bilan kelishilgan holda taqdim etilsin;

Davlat-xususiy sheriklik loyiha hujjatlarini tashabbus qilinayotgan loyiha taqdimoti (prezentatsiyasi) ma'qullanmagunga qadar loyiha hujjatlarini tayyorlashga tavsiya berilmasin; tashabbuskorni sohadagi tajribasi va **oxirgi 3 yillik moliyaviy holati** o'rganilib, salohiyatli deb topilganidan so'ng loyiha hujjatlarini tayyorlashga ruxsat berilsin;

imzolangan bitimlar bo'yicha monitoring o'tkazish, unda mavjud holati, moliyaviy kafolati (bank kafolati va sug'urta), kechikayotgan loyihalar sabablari, istiqboli yo'q loyihalar bo'yicha bitimlarni bekor qilish yuzasidan xulosa, monitoring dalolatnomasi **ikki hafta muddatda** kiritilsin.

"Onko-nazorat" xonalarida elektron bazaga ma'lumotlarning to'liq va o'z vaqtida kiritilishini, test va tahlil natijalarining logistikasi, saqlash va yetkazish talablariga qat'iy rioya qilinishini qat'iy nazoratga olsin, lozim bo'lganda kompyuter savodxonligi past bo'lgan hududlarda mutaxassislarni qayta o'qitsin;

tibbiyot muassasalari tomonidan o'z balansidagi tibbiy jihozlarni "jihozmed" elektron tizimiga belgilangan muddatlarda to'g'ri va sifatli kiritilishini doimiy nazorat qilib borsin;

tegishli muassasalarda audioskrining o'tkazilishini nazorat qilib, uni o'tkazayotgan tibbiyot xodimlariga vazirlikning buyrug'i bilan belgilangan ustamaning o'z vaqtida berilishini ta'minlasin;

tuman markaziy shifoxonalarda xirurgiya bo'limlarining ish samaradorligini ta'minlash uchun, uning faoliyatiga bevosita bog'liq bo'lgan paraklinik bo'limlar (laboratoriya, gemodializ, sterilizatsiya, kislorod ta'minoti, anesteziologiya va reanimatsiya) ish faoliyatining uzluksizligini ta'minlash choralari ni ko'rsin;

bor imkoniyatdan foydalanib, tuman va shaharlarda laparoskopik, kaminvaziv jarrohlik amaliyotlar turini ko'paytirsin.

Bunda, tumanlarda ish faoliyatini olib borayotgan yosh malakali mutaxassislarni poliklinikalardan statsionar faoliyatiga jalb qilish, ularni malakasini oshirish uchun o'quv kurslariga yuborish va shu bilan laparoskopik xirurgiya ko'lamini joylarda kengaytirish inobatga olinsin.

Akademik V.Vohidov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (Ismailov) o'z vertikal bo'yicha hududiy xirurgiya bo'limlariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatsin, 2025-yil natijasi bo'yicha viloyat va tuman (shahar) sog'liqni saqlash bo'limlari bilan birgalikda hisobot kiritsin.

4. Vazir o'rinbosari (F.Tashpulatov) Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi bilan birgalikda bir hafta muddatda:

a) Buxoro viloyat aholisiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish maqsadida viloyatdagi (*Olot tuman 12 ta, Buxoro tuman 7 ta, Buxoro shahar va Shofirkon 6 tadan, Qorako'l tuman 5 ta, Romitan, Vobkent, Kogon, va Jondor 3 tadan, Peshku va G'ijduvon 2 tadan, Kogon shahar va RIO va RIATM Buxoro filiali*) **55 ta** tibbiyot muassasa binolarini va ulardagi **211 ta** nosoz tibbiy jihozni joriy ta'mirlash uchun **5,1 mlrd so'm;**

Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Buxoro filialiga imunogistokimyoviy tahlili uchun **1,2 mlrd so'm;**

Buxoro tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli markaziy kasalxonaning yer to'la qismida sizot suvlari sizib chiqishi oqibatida, binoning poydevori va devor qismini ta'mirlash uchun **300,0 mln so'm;**

Buxoro viloyat qon quyish stansiyasini gemokonteyner va zarur bo'lgan tibbiy sarflov materiallari bilan ta'minlash uchun **500,0 mln so'm;**

Peshku tuman markaziy shifoxona dorixonasi, zararsizlantirish bo'limi yer to'la qismi, poydevori va devor qismini ta'mirlash uchun **680,0 mln so'm;**

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Buxoro filialidagi tibbiy asbob-uskunalar (*erta tug'ilgan chaqaloqlar reanimatsiya bo'limida*) uchun zarur bo'lgan ehtiyot qismlarni xarid qilish uchun **500,0 mln so'm;**

Buxoro viloyatdagi 1 440 nafar tug'ma yurak nuqsoni bor bolalarni diagnostika qilish va dinamikada kuzatish maqsadida viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazini 1 dona statsionar tipidagi kardiopaketli dopler funksiyali ultratovush, 4 dona invaziv kardiomonitor, 4 dona invaziv defibrillyator, 2 ta kardioxirurgik asbob-uskunalar to'plami bilan ta'minlash uchun **555,0 mln so'm mablag'larning moliyaviy manbalari**

va ajratilishi bo'yicha;

b) laparoskop uskunasi mavjud bo'lmagan tuman (shahar) markaziy shifoxonalarini hamda Buxoro viloyati endokrinologiya dispanserini mazkur uskuna bilan ta'minlash;

tuman markaziy shifoxonalari xirurgiya bo'limlarini "Garmonik" ultratovush skalpeli yoki uning zamonaviy analoglari bilan jihozlash;

Vobkent tumanlararo o'tkir qon-tomir va qo'shma jarohatlar markazini angiograf tibbiy apparati bilan ta'minlash;

G'ijduvon, Jondor tuman va Kogon shahar tibbiyot birlashmalarida yangidan tumanlararo qo'shma shikastlanishlar va o'tkir qon-tomir kasalliklari markazlarini tashkil etish va zarur tibbiy-asbob uskunalar bilan ta'minlash;

Buxoro viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi tizimidagi tibbiyot muassasalarini 1 000 ta zarur kompyuter texnikalari bilan jihozlash;

tuman va shahar tibbiyot birlashmalari rahbarlarining oylik maoshini oshirish bo'yicha **takliflarni kiritsin.**

v) **2025-yil yakuniga qadar** tajriba-sinov tumanlaridagi **2-tipdagi** oilaviy poliklinikalar uchun rentgen hamda fizioterapevtik apparatlarni xarid qilish choralarini ko'rsin;

5. Investitsiya Dasturlari, infratuzilma, energetika va xo'jalik ishlari boshqarmasi boshlig'i (I.Nabiyev):

Buxoro viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining maslahat poliklinikasi va onkogematologiyasi bo'limi o'rnida 40 o'rinli zamonaviy binoni yangidan qurish va jihozlash ishlarini belgilangan muddatlarda 2026-yilgi Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlariga kiritsin;

6. Buxoro viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi (E.Oltiyev):

G'ijduvon tuman sog'liqni saqlash bo'limiga qarashli **I-tipdagi** 18-OPga 3 va 9 OPdan hamda 19-OPga 6-OP va 17-OPdan aholini biriktirish orqali 18 va 19 OPni II-tipdagi poliklinikaga aylantirish orqali 40 nafar xodimlarni ish bilan ta'minlash bo'yicha taklif kiritsin.

7. Nazorat inspeksiyasi (A. Alijanov) uch kun muddatda:

Sirdaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi (S.Xudoyberdiyev) bilan birgalikda Sirdaryo viloyatida sitologiya tahlili bo'yicha berilgan hisobotga amalda o'tkazilmagan tahlillarni qo'shib yozgan shaxs bo'yicha;

Respublika tez tibbiy yordam markazi (A. Gafurov) bilan birgalikda Toshkent viloyatining Ohangaron shahridan Toshkent shahriga bemor bolani kuzatib kelgan mutaxassis neonatologni qoldirib ketgan tez tibbiy yordam brigadasi bo'yicha xizmat tekshiruvi o'tkazib, natijasi bo'yicha shaxsan vazirga axborot bersin.

8. Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat bo'limi (S.Mamanov) bir oy muddatda rahbar xodimlar faoliyatida manfaatlar to'qnashuvi va nepotizm risklarini bartaraf etish bo'yicha topshiriqlar ijrosini nihoyasiga yetkazmagan rahbarlarga nisbatan javobgarlik masalasini ko'rish yuzasidan bildirgi kiritsin.

9. Xalqaro hamkorlik bo'limi (M.Mamirov) bir oy muddatda:

tizimdagi barcha rahbar va xodimlarning xorij safariga chiqishi bilan bog'liq holatni tartibga soladigan, muvofiqlashtiradigan va nazoratga oladigan va eng asosiysi har bir safarning natijasini baholaydigan yo'riqnomani ishlab chiqsin.

10. Sog'liqni saqlash vazirligining 2025-yil II- yarim yillikka mo'ljallangan Hay'ati yig'ilishining ish rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

*Sog'liqni saqlash vazirligi Hay'atining
2025-yil " 22 " avgustdagi
5-sonli yig'ilish bayoniga ilova*

**2025-YILNING IKKINCHI YARIM YILLIGIDA O'TKAZILADIGAN
HAY'AT MAJLISLARI REJASI**

No	No	Masalalar	Mas'ul hay'at a'zosi	Mas'ul bo'linmalar
AVGUST				
1	1	88-son Farmon islohotlari: 15 ta tajriba tumanida olib borilayotgan ishlar; tibbiyotda 90 kun dasturi doirasidagi ishlar ijrosi; raqamlashtirish borasida bajarilgan ishlar	Vazir, Hay'at raisi A.Xudayarov	Vazir (A.Xudayarov)
2	2	"Sog'liqni saqlash loyihalar markazi" loyiha ofisi tomonidan bajarilayotgan ishlar.	Vazir, Hay'at raisi A.Xudayarov	Loyiha ofisi direktori (E.Adilov)
3	3	Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazini "Health management" MCHJ ga tashqi boshqaruvga berish to'g'risida.	Vazir, Hay'at raisi A.Xudayarov	Loyiha ofisi direktori (E.Adilov)
4	4	Tibbiyot muassasalarida pullik xizmat ko'rsatish hajmlari va ularni kengaytirish, davlat-xususiy sheriklik, xorijiy investitsiyalar va grant loyihalari holati.	Vazir o'rinbosari F.Tashpulatov	Vazir o'rinbosari (F.Tashpulatov)
OKTYABR				
5	1	Sog'liqni saqlash sohasini raqamlashtirish yagona tizimga integratsiya qilish bo'yicha olib borilayotgan choralar. Tibbiyot muassasalariga raqamli texnologiyalarni joriy etish to'g'risida.	Vazir o'rinbosari O.Omonov	(N.Eshnazarov)
6	2	Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi tibbiyot tashkilotlari faoliyatini o'rganish davomida aniqlanayotgan asosiy muammolar, va yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar, tizimda korrupsiya holatlari, ularni keltirib chiqaruvchi omillar va ularni oldini olish to'g'risida (aniq faktlar, misollar asosida).	Vazir, Hay'at raisi A.Xudayarov	Korrupsiyani oldini olish va qarshi kurashish bo'limi (S.Mamanov)

7	3	Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etish borasida 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida.	Vazir o'rinbosari F.Tashpulatov	Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi (Z.Ermatov)
8	4	Salomatlik va strategik rivojlanish instituti tomonidan 2024-yil hamda 2025-yilning 9 oy davomida amalga oshirilgan ishlar.	Vazir, Hay'at raisi A.Xudayarov	Salomatlik va strategik rivojlanish instituti (A.Inoyatov)
9	5	Tibbiyot tashkilotlarini litsenziyalash va akkreditatsiyalash markazi tomonidan 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar.	Vazir o'rinbosari E.Basitxanova	Tibbiyot tashkilotlarini litsenziyalash va akkreditatsiyalash markazi (J. Asamutdinov)
DEKABR				
10	1	"Xaridlar markazi" DM tomonidan 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar.	Vazir o'rinbosari F.Tashpulatov	"Xaridlar markazi" DM direktori (X.Usmanov)
11	2	Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi tomonidan 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar.	Vazir o'rinbosari E.Basitxanova	Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi direktori (A.Temirov)
12	3	Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markazi tomonidan 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar.	Vazir o'rinbosari E.Basitxanova	Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markazi (S.Sharipov)
13	4	"Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimidagi topshiriqlar ijrosi 2025-yil yakunlari, 2026-yil uchun Sog'liqni saqlash vazirligining boshqarmalari va bo'linmalari kesimida belgilangan topshiriqlar to'g'risida.	Vazir, Hay'at raisi A.Xudayarov	Ahborot-tahlil va ijro intizomi boshqarmasi (A.Ibodullayev)
14	5	O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni ijrosi, 2025-yil 2-yarim yil yakuni bo'yicha Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi masalalar yuzasidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaati tahlili to'g'risida.	Vazir o'rinbosari E.Basitxanova	Murojaatlar bilan ishlash bo'limi (R.Kurganov)